

## **Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoniga 12-16 iyun kunlari 159 nafar fuqarodan murojaatlar kelib tushdi**

Murojaatlar bo‘limi xodimlari 12-16 iyun kunlari **Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, xirurgiya, akusherlik va ginekologiya, ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari hamda Bolalar milliy tibbiyot markazida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanib chiqqan **159 nafar** bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash hamda tibbiy yordam sifati, hajmi yuzasidan telemuloqotlar o‘tkazdilar.

O‘tkazilgan telemuloqotlar natijasida **8(5%) nafar** bemorlar shifokorlarning bemorlarga muomalasidan, o‘z hisobidan dori-darmonlar sotib olganligi va shifoxona sharoitidan qoniqmaganligi, oziq-ovqatlar sifati yuzasidan **o‘z e ‘tirozlarini bildirgan**.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefon(**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga **138 ta** fuqarolardan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan “**sms**” xabarnoma, jamg‘arma faoliyati yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlar** bo‘ldi.

Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi xodimlari hafta davomida umumiy **297 nafar** fuqarolar bilan telemuloqatlar o‘tkazdilar.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan ishonch telefonlariga **7(5%)ta og‘zaki e ‘tirozli murojaatlar** kelib tushdi.

### **Shulardan:**

**Toshkent davlat stomatologiya instituti klinikasi, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko‘p tarmoqli klinikasida** imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan bemorlar **shifokorlar qarovidan, davolanish sifatidan va shifoxona sharoitidan noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga o‘zlarining **e ‘tirozli og‘zaki murojaatlar** qildilar.

Ushbu murojaatlar yuzasidan shifoxona mas’ullariga telefon orqali murojaatchilarning ma’lumotlari berildi, bemorlar e’tirozları o‘rniligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlar o‘z vaqtida bartaraf qilindi**.

**Namangan, Navoiy, Samarcand va Surxondaryo viloyatlarida** yashovchi **imtiyozga ega fuqarolardan** Jamg‘arma ishonch telefonlariga kelib tushgan og‘zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislarga ma’lumotlari berildi, **og‘zaki murojaatlar ijobiylar qilindi**.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi hamda Ozarbayjon majburiy tibbiy sug‘urtasi mas’ul xodimlari bilan** birgalikda **Microsoft Teams** platformasi orqali Murojaatlar bo‘limi tashabbusi bilan **Call markaz** faoliyatini o‘rganish hamda tajriba almashish maqsadida onlayn uchrashuv o‘tkazildi.

**Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi  
Matbuot xizmati**